



**“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARIDA OMONIM SO‘ZLAR**  
**ОМОНИМИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «СЛОВАРЬ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ (ДИВАНИ ЛУГАТ АТ-ТЮРК)»**  
**HOMONIMS IN THE “THE DICTIONARY OF TURKIC LANGUAGES (DIVAN LUGAT AT-TURK)”**

**Kilichov Nazarbay Radjapbayevich,**

Karakalpak State University, Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philology

**Yangiboyeva Surayyo,**

Karakalpak State University, student

**Karimova Dilfuza,**

Karakalpak State University, student

e-mail: [nkilichovr@mail.ru](mailto:nkilichovr@mail.ru)

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada qadimgi turkiy til namunasi “Devonu lug‘oti-t-turk” asaridagi omonimlar tahlil qilingan. Omonimlarning hozirgi turkiy tillarga munosabati yoritilgan.

**Аннотация.**

В статье анализируются омонимы в «Словарь тюркских языков (Дивани лугат ат-тюрк)», образце древнетюркского языка. Описано отношение омонимов к современным тюркским языкам.

**Annotation.**

This article analyzes the homonyms of the ancient Turkic language "Devonu lug'oti-t-turk". The attitude of the homonyms to modern Turkic languages is described.

**Tayanch so‘zlar.**

“Devonu lug‘oti-t-turk”, omonim, qadimgi turkiy til, turkiy tillar, asos, so‘z.

**Ключевые слова.**

«Словарь тюркских языков (Дивани лугат ат-тюрк)», омоним, древнетюркский язык, тюркские языки, основа, слово.

**Keywords.**

Devonu lug'oti-t-turk, homonyms, ancient Turkic language, Turkic languages, basis, word.

Tilimiz qadimgi davrlardan boshlab serqirraligi bilan ajralib turadi. Buni biz ajdodlarimizning bizga qoldirgan meroslarida ham ko‘rishimiz mumkin. Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asr ma‘daniyatining buyuk arboblardan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o‘rganish sohasida mashhur ekanligi

barchamizga ma'lum. Uning "Devonu lug'oti-t-turk" asari turkiy tilning boyligini, mazmunda va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan. Asarda keltirib o'tilgan lug'atlarda omonimlikka ega bo'lgan bir qator so'zlar ham mavjud. Bu esa ilk o'rta asrlardan oq xalq tilida bir so'z bir necha ma'nolarda qo'llanilganidan dalolat beradi. Masalan, Devonda 'japyk' so'zi ikki xil ma'noda izohlangan, biri yorug'lik ma'nosida, ikkinchisi esa yerda, devorda, tog'larda (chinni, sopol), idishlar va boshqalardagi yoriq, darz ma'nosida qo'llanilgan [2:22]. Omonimlik tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir, ular omonim omoleksemalar deb ham ataladi. Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo'ladi [1:177].

"Devonu lug'oti-t-turk"da izohlangan bir qancha so'zlar omonimlikni hosil qiladi. Ushbu omonim so'zlar bir so'z turkumi doirasida: 1. jām: a) suv ustidagi va ko'zga tushadigan xas, cho'p. Kōzrā jam tūmri - ko'zga cho'p tushdi (ot so'z turkumi); b) jām-xushbo'y, dorivor o'tlar. Ot jām- ovqatga solinadigan kashnich, rayhon, yalpiz, zira kabi isli narsalar har vaqt ot so'zi bilan qo'shma holda aytiladi. Ayrim qo'llanmaydi (ot so'z turkumi). Hamda bir necha so'z turkumi doirasida ham qo'llaniluvchi omonim so'zlar keltirilgan. 2. jārliḡ - a) yo'qsul, bechora. Jārliḡ ḡp- yorlaqangan (rahm qilingan) odam shunda nolimgandir (sifat so'z turkumi); b) xoqonning xati, farmoni (chigilcha). Buni o'g'uzlar bilmaydilar (ot so'z turkumi).

Omonimlikni hosil qilgan ba'zi so'zlarning asos qismida bugungi kunda ham omonimlikni mavjud. Lekin bunday so'zlarning omonimligi boshqa- boshqa ma'nolarda qo'llanilishi bilan farqlanadi. Masalan, "Devonu lug'oti-t-turk"da keltirilgan jūzdi so'zini olaylik, ushbu so'z uch xil ma'noda omonimlikni hosil qilgan. 1) suzdi ma'nosida. ḡp cywda jūzdi- odam suvda suzdi; 2) yoyildi, siljidi ma'nosida. Ipiḡ jūzdi- yiring badanda, yarada yoyildi; 3) shildi ma'nosida. ḡp tūḡum jūzdi- odam so'yilgan hayvon terisini shildi. Jūzdi so'zi bugungi kunda birinchi ma'noda qo'llangan "suzdi" shaklida qo'llaniladi. Bu so'z ham turli xil ma'nolarga ega shakldosh so'z sanaladi. Bugungi kunda iste'molda bo'lgan "suzdi" so'zi "Devonu lug'oti-t-turk"da qo'llangan "jūzdi" so'zining birinchi ma'nosi kabi bir xil ma'noda qo'llaniladi. Ya'ni, Suz- fe'l. Suvda harakatlanmoq. Suzgich. Daryodan suzib o'tmoq. Qayiqda suzmoq. Suvda suzish bo'yicha musobaqa o'tkamoq... Biroq keyingi ma'nolar tubdan farq qiladi. Suz- fe'l. Ovqatni idishga solmoq. Aziz oshni guldor spool laganga suzib keldi. Hamid G'ulom, Binafsha atri. Keyingi ma'nosi noz-karashma ifodalovchi holatga keltirmoq (ko'zni). Ko'zini suzmoq. Senga ko'z suzganini o'z ko'zim bilan ko'rdim-ku. Sharof Rashidov, Qudratli to'lqin. Suzdi so'zi yana shoxi bilan hujum qilmoq ma'nosida ham qo'llanilib omonimlikni hosil qiladi. Suzong'ich. Ha, asov sigirning fe'lini bilmasang, oldiga yo'latmaydi- suzadi, tepadi, sut bermaydi. M. Jo'ra, Quyoshdan nur emganlar [3: 119-120].

E'tiborli jihati shundaki, Devonda qo'llangan bir qancha omonim so'zlar bugungi kunda o'z omonimligini yo'qotgan. Masalan, jawa-uning suvi bilan tutmochga rang beriladigan bir xil tikanli o'simlik; jawa- bu so'z o'g'uzlarning bir qabilasida jawa shaklida qo'llanadi. Shuningdek, o'g'uzlarda issiq yer- jawa jōp deyiladi [2:33] Ushbu so'z bugungi kunda o'z muqobiliga ega bo'lmagan va omonimligini yo'qotgan so'zdir. Julundī so'zida ham biz mana shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Julundī: saḡ julundī: -soch olindi ma'nosida. Julmak so'zi hozirgi o'zbek tilida shu ma'noda qo'llansa ham, soch so'ziga nisbata nemas, asosan, o'tga, patga nisbatan qo'llanadi. Lekin sochga nisbatan maxsus sharoitdagina, ya'ni g'azabli, alamli holatlardagina qo'llaniladi. Shu bilan birga, bu so'z hozirgi tilda tortib olmoq, noto'g'ri yo'l bilan o'zlashtirmoq ma'nolarida ham qo'llaniladi [3:93]. Endi julundī va shunga o'xshash bugungi kunda omonimligiga ega bo'lmagan bir necha so'zlarni jadval asosida ko'rishimiz mumkin.

№	Devondagi shakli	Birinchi ma'nosi	Ikkinchi ma'nosi	Uchinchima'nosi
1	жулундї	Ozod qilindi. Қул жулундї – қул хо'jayiniga o'z qiymatini to'lagani uchun ozod qilindi.	Qutqarildi. болун жулундї - asir pul to'lab qutqarildi.	Ajraldi. урағут жулундї- Xotin eriga pul to'lab ajraldi.
2	жирүк	Жирүк эшлар – yirik хотинлар.	Жирүк нән узunasiga yorilib bo'lingan, shuning uchun go'zalligini yo'qotgan har bir narsa.	Kemtik, labi siniq narsa.
3	жабақу	Bir toifa turkiy xalqlar	Yungdan ishlangan namat. Bosh tuklari chigillashib o'ralishib ketsa жабақу болдї deyiladi.	Жабақу cywi – Qashqar tog'laridan chiqib, O'zgand va Farg'onaga oqadigan suv.
4	жәлпірді	Esdı. Jәl jәлпірді- shamol esdı.	Әр jәлпірді- odam jin tekkanda yo'ngga, chapga qaradi.	Namlandı. Кәпәк jәлпірді- kepak namlandı. Yerga tomchi tomsa ham shu so'z qo'llanadi.

Shuningdek, Devonda hozirgi o'zbek tilida omonimlikka ega bo'lmagan so'zlar bilan bir qatorda bir necha so'zlarda o'xshash omonimlik ham mavjud.

Ko'k so'zining omonimligi

№	Devondagi ma'nosi	Hozirgi o'zbek tilidagi ma'nosi
1	(qattiq k bilan) osmon. Maqolda shunday kelgan. Көккә cызcә jызrә rышүр - osmonga tupirgan kishining tupugi yuzga tushadi.	Yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turuvchi havo qatlami, osmon, falak, samo. Ko'kda yulduzlar charaqlaydi. Ko'k yuzini bulut tutdi...
2	Ko'k rang. Көк тон - ko'k to'n. Shuningdek, osmon rangli har bir narsaga ham bu so'z qo'llanadi.	Havo rangli, moviy, zangori. Ko'k qalam. Ko'k ko'z...

Bundan tashqari ushbu so'z yashillik ma'nosida ham qo'llanilib kelingan bo'lib, Devonda, кәнд көкi – shahar qorasi, ya'ni shahardagi ko'k (ya'ni yashil) daraxtlar ma'nosida qo'llangan bo'lsa, hozirgi o'zbek tilida kashnich, ukrop, petrushka, barra piyoz kabi o'simlik; ovqatga ishlatiladigan ko'kat ma'nosida qo'llaniladi. Ko'kchi, oshko'k. Bir parcha yerga ko'k ekib qo'ysangiz... [3:82-83]

Devondagi omonimlar tarkibida bir qancha ma'nolarga ega bo'lgan holda omonimlik vujudga kelgan so'zlar ham mavjud. Masalan, birgina "kör" so'zi olti xil ma'noda qo'llanilib omonimlikni vujudga keltirgan. Bular, 1) kör- she'rning vazni, o'lchovi. Бу jip нә көр үзә ол – bu she'r qaysi vaznda; 2) kör- kuy, maqom, ashulada maxsus qoidaga muvofiq ovozni baland-past qilish. Әр көрләнди - odam ovozini baland-past qilib, ma'lum maqomda ashula aytdi; 3) көр – bu bir xil kulgiki, har shahar xalqi orasida mashhur bo'lib aytib yuriladi. Бу jil бy көркәлди- bu yil bu kulgi chiqdi, deyilishi kabi; 4) көр jилкi- boshvog'I olinib, qo'yib yuborilgan hayvon. Қој көгi болдi- qo'ylarning qo'shiladigan, uyur oladigan vaqti bo'ldi. Boshqa

hayvonlarda ham bu soʻz qoʻllaniladi; 5) kōr- oyna yuziga tushadigan dogʻ, zang. Kōzŷhŷg āk ōr tŷŷdī- oynaga dogʻ tushdi, zang bosdi deyilgandagi kabi; 6) kōr- xotinlar yuziga tushadigan dogʻ. Boshqasida ham shunday.

Umuman olganda bunday omonim soʻzlarning kelib chiqishida tildagi tovush oʻzgarishlari, yozuv qoidalari muhim manba boʻlib hisoblanadi. Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari esa nutqning chiroyli, taʼsirchan ifodalanishi va soʻzlardagi nozik maʼno qirralarini farqlashga yordam beradi. Bu esa nutqning samaradorligini oshirishi mumkin. “Devonu lugʻoti-t-turk”da qoʻllanilgan omonim soʻzlar ham mana shunday vazifani oʻtash uchun qoʻllanilgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

## Adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. “Talqin”. 2005.
2. Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻoti-t-turk. Oʻzbekiston fanlar akademiyasi. Toshkent. 1963.
3. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati. Toshkent. “Oʻqituvchi”. 1984.